

Yashil dunyo savdo majmuasida sotuvchilar bilan uchrashuv o‘tkazildi



Yashil dunyo savdo majmuasida sotuvchilar bilan uchrashuv o‘tkazildi

Bugun shahar hokimi O‘ktam To‘rayev, shahar DSI boshlig‘i S.Muxammadiyev va aloqador mas‘ullar birgalikda “Yashil dunyo” markaziy dehqon oziq-ovqat bozorida sotuvchilar bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuvda shahar rahbari sotuvchilar bilan muloqot qilib, ushbu savdo markazining ikkinchi qavatida do‘koni mavjud tadbirkorlarga savdo-sotiq ishlarini boshlashi bilan barcha zarur sharoitlar yaratib berilishini ta’kidladi.

O‘z navbatida, sotuvchilar ham o‘zlariga tegishli do‘konlardagi kamchiliklarni tez kunlarda bartaraf etishga va savdo ishlarini yo‘lga qo‘yishga kelishib olindi.





Image not found or type unknown

